

**KASB HUNAR TA'LIMIDA O'QUVCHILARNI TARBIYALASH NAZARIYASI VA
AMALIYOTI**

Sharapova Dildora Baxtiyarovna

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi

Tangriyeva Charos

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Tibbiy biologiya 3-kurs talabasi

Rajabova Mukarram

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Tibbiy biologiya 3-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqola kasb-hunar ta'limida o'quvchilarni tarbiyalashning nazariy va amaliy ahamiyatini o'rganishga, o'qitish jarayonida ta'lim va tarbiyani uyg'unlashtirishga qaratilgan zamonaviy metodlarni o'rganish hamda amaliyotda qo'llanilishini tahlil qilishga bag'ishlangan.*

Tayanch tushunchalar: *Kasb-hunar ta'limi, metodika, tarbiya, kuzatish metodi, test metodi, aqliy hujum, tarbiya, nazariya, amaliyot.*

Аннотация : *Данная статья посвящена изучению теоретического и практического значения обучения студентов профессиональному образованию, изучению современных методов, направленных на гармонизацию образования и обучения в учебном процессе, и анализу их применения на практике.*

Ключевые слова: *Профессиональное образование, методика, обучение, метод наблюдения, метод тестирования, мозговой штурм, обучение, теория, практика.*

Annotation: *This article is devoted to the study of the theoretical and practical significance of teaching students vocational education, the study of modern methods aimed at harmonizing education and training in the educational process, and the analysis of their application in practice.*

Key words: *Vocational education, methodology, training, observation method, testing method, brainstorming, training, theory, practice.*

«Tarbiya san'ati – deyarli hammaga tanish va tushunarli, ba'zilarga esa, hatto oson tuyulish xususiyatiga ega, u qanchalar tushunarli va oson tuyulsa, o'sha inson u bilan nazariy va amaliy jihatdan shunchalar kam tanish», degan edi K.D.Ushinskiy. Tarbiya – pedagogik nazariya va amaliyotidagi eng o'zgarmas, va eng qadimiy muammodir.

Tarbiya, asosan, quyidagi vositalar yordamida amalga oshiriladi: ko'rsatish va tushuntirish, rag'batlantirish va jazolash, vazifa berish va talab qilish, tekshirish, tuzatish, ishontirish va tahlil qilish. Ana shunday ta'sir ko'rsatish yo'li bilan kattalar bolalarning bilish va amaliy faoliyatlarini yuzaga keltirib, ma'lum tomonga yo'naltiradilar va bu faoliyatlar nazorat qilinib, to'g'rilab hamda shuning bilan birga faoliyatlarni rivojlantirish amalga oshiriladi.

Pedagogikada tarbiya berish usuli ikki turga bo'linishi qayd etilgan. Avvalgi usul, (ilhomlantiruvchi) san'atni o'z rag'batlari bilan o'rganuvchilarga ishlatiladigan usul. Ikkinchi usul, (majbur etish) esa majburiy ravishda tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash uchun ishlatiladigan usul. tarbiya beruvchi yoki shogirdlar ustida turgan o'qituvchilarning qo'llaydigan usuli bunga misoldir. Masalan, hukumat yoki davlat, mazkur mamlakatda yashovchining muallimi, tarbiyachisi bo'ladi. Bolalar ustida turgan odam esa muallim bo'lib, u bolalarga tarbiya berishda turli tarbiya usulidan foydalanadi. Mana shundan ma'lum bo'ladiki, hukumat (davlat) va muallim har ikkovi o'z yo'lida bolalar yoki mehnatkashlarga tarbiya beruvchi ustoz va muallimlardir. Ulardan biri bolalarga mehribonlik va yaxshi so'zlar bilan tarbiya bersa, ikkinchisi majburiy ravishda tarbiyalaydi.

Ajdodlarimiz tomonidan qo'lga kiritilgan qadimiy madaniyat tarkibidan ta'lim-tarbiyaga oid merosi ham kasb-hunat ta'limida tarbiya berishda muhim manba sanaladi. Shuningdek, muhim arxeologik topilmalar, tarixchilar, adabiyot va san'at namoyondalarining ijodiy merosi, san'at va adabiy asarlarning namunalari buning dalilidir. Eng qadimgi madaniy boyliklarimizni o'rganishda, quyidagi uch guruhga ajratilgan manbalarga tayanamiz:

1. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ko'rgazmali ashyolar.
2. Xalq og'zaki ijodi materiallari hamda yozma manbalar.
3. Buyuk adiblar, allomalarning ijodiy merosi.

Ibtidoiy kishilarning tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlari, ular tomonidan amal qilingan urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlari mazmuni xalq og'zaki ijodining eng qadimgi janrlaridan biri bo'lgan afsonalarda ifodalangan. Afsonalarning qahramonlari yaxshilikning tantana qilishi uchun yomonlik hamda nurning muqarrar mavjud bolishi uchun zulmat bilan kurash olib boradilar, yaxshilik va baxtsaodatga chulg'angan o'lkalarini yaratadilar. Aksariyat afsonalarning qahramonlarini inson sifatida gavdalangan xudolar tashkii etgan.

Tarbiyaning maqsadi – jamiyatning alohida bir olingan shaxsga bo'lgan ehtiyojlarini aks ettirish, uning mohiyati, ideal talablarini qondirishga erishishdan, o'ziga xosligi va fazilatlarini, hayotga munosabatining aqliy, jismoniy, axloqiy va estetik rivojlanishini nazariy umumlashtirishdir. Shaxsning har tomonlama kamolotga yetishi – ma'lum bir hayotiy, tarixiy shart-sharoitlarda amalga oshirish mumkin bo'lgan qobiliyatlar va iqtidorlarning mohiyatini tashkil etadigan hamma kuchlarining to'liq va batamom rivojlanishidir.

Pedagogik jarayon – ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan kattalarning pedagogik faoliyati ta'sirida tashkiliy shakllantirilgan va mazmunan bovitilgan hamda tarbiyachining yo'naltiruvchi va olib boruvchi rahbarlik roli natijasida bolaning o'z – o'zini taraqqiy ettirishi, bolalarni tarbiyalovchi jamoa – bir butun o'quv – tarbiyaviy jarayonni tashkil etishning asosiy shakllaridan biri bo'lib, jamoaviy yuqori darajadagi axloqiy, estetik hamda ijtimoiy munosabatlarni tarbiyalaydigan, maxsus tashkil etilgan tizim, bolalar muhitida muloqot olib borishdir. Havaskorlik – bolalarning mustaqil, ixtiyoriy, o'z xohishiga ko'ra

amalga oshiradigan ichki faoliyati. Tarbiyaviy muhit – inson shaxsini shakllantiruvchi tabiat, ijtimoiy munosabatlar tizimi. ijtimoiy tafakkur, turmush va shaxslararo munosabatlarning doirasi kabi omillarning bir-birini boyitishi va muvofiq kelishi kabilarni o'z ichiga oladi.

Aqliy tarbiya – bolalarning ongi va tafakkurini bilimlar, ongli ko'nikmalar hamda malakalar bilan boyitish, aqliy kuchlar, sezgilar, ruhiy jarayonlar, iqtidorlar, biluvchanlik maqsadlari, dunyoqarash va faoliyat ozodligini shakllantirishga aytiladi.

Huquqiy tarbiya – huquqiy madaniyatni, o'quvchilarda qonunga bo'ysunuvchanlik xatti-harakatini shakllantirishga aytiladi.

Mehnat tarbiyasi-bolalarni umumiy mehnat bilimlari va ijtimoiy foydali mehnat malakalari bilan qurollantirish. Shu bilan birga, mehnatsevarlik, mehnat kishisining psixologiyasini rivojlantirish, mulkning har xil shakldagi turlarida mehnatining har xil shakllarini tashkil etish qobiliyatini namoyon etib, muvaffaqiyatga erishish, tadbirkorlik va ijodiy yondashuvni namoyon etish xususiyatlarining egasi sifatida shakllantirishdir.

Iqtisodiy tarbiya – o'quvchilarni asosiy iqtisodiy tushunchalar bilan tanishtirish jarayoni bo'lib, ularni ishlab chiqarishni tashkil etish sohasidagi oddiy harakatlar qilishi lozim bo'ladigan ishlar ko'nikmasi, malakasi bilan taqsimot va ta'limot bilan, iqtisodiy tafakkurning rivoji bilan qurollantirish jarayonidir.

Ekologik tarbiya – o'quvchilarni ekologik (atrof-muhit muhofazasi) bilimlari bilan qurollantirishdir, shuningdek, tabiatga nisbatan axloqiy-estetik, oqilona ekologik xatti-harakatlar ko'nikmalarini, ekologik tafakkurini hamda ekologiya uchun faol kurashish qobiliyatlarini shakllantirishdir.

Axloqiy tarbiya – o'quvchilarda umuminsoniy axloqiy prinsiplarga sodiq bo'lishdek. jamiyat axloqiy talablari va me'yorlarini hisobga olgan holda o'z xatti-harakatlarini tanlay olish mahoratini, axloqiy tafakkur va kundalik odatdagi axloqiy xatti-harakatlarining mustahkam tizimini shakllantirishga aytiladi.

Jismoniy tarbiya – bolaning hamma jismoniy xususiyatlarini: anatomik, fiziologik, asab va boshka sistemalarini har tomonlama rivojlantirish, sog'lom hayot kechirishning afzalliklari, shart-sharoitlari. asoslari hamda jismoniy madaniyatning odatdagi zarur elementlarini mustahkam tarzda shakllantirish holati hisoblanadi.

Estetik tarbiya – badiiy-estetik tafakkurni shakllantirish, real hayotda san'atdagi estetik hodisalar» ko'rinishlar, holatlarni his qila olish. qabul qila olish, baholav olish qobiliyatlarini shakllantirish shuningdek, ijodiyotda faol ishtirok etish kabilarni o'z ichiga oladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozim-ki, tarbiyalash uslublari (usullari) – katta yoshdagilar bilan bolalar o'rtasidagi pedagogik, aqlan o'ylab ko'rib. Ma'lum maqsadga yo'naltirilgan ta'sirlarining jamiyat tomonidan shart deb qo'yilgan usullari bo'lib, bolalik davri, faoliyati, muloqoti, munosabatlarini tashkil etishga yordam beradi, ularning faolligini rag'batlantiruvchi hamda xatti-harakatlarini boshqarish asoslari hisoblanadi.

Ta'lim usullari (uslublari) - bolalarning bilimlarni, ko'nikmalar va malakalarni o'zlashtirishini, umumiy ma'lumot hamda umumiy ta'limning vositalarini egallashi uchun

aqliy kuchlari, qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlaydigan, pedagog bilan o'quvchining o'quv o'rganish jarayonidagi o'zaro ta'sirlarda maxsus yo'nalishlarni qamrab oladi. Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani ta'limdan ayro tasavvur etib bo'lmagani kabi ta'lim jarayonida tarbiya berish o'quvchilarni tarbiyalash nazariyasi va amaliyotini kasb-hunar ta'limiga tadbiiq etishni taqozo etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. SH.M.Mirziyoev "Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" T.: O'zbekiston-2016.
2. A.Mavlyanov va boshq. Pedagogik texnologiya tamoyillari asosida dars mashg'ulotlarini olib borish texnologiyasi "VORIS-Nashriyot"- T.: 2010. 112-bet.
3. A.Xodjaboev, L.Xusanov "Kasbiy ta'lim metodologiyasi". T.: Fan va texnologiyalar, 2007
4. D.Alimjonova, I.T. Aliev "Kimyo va oziq-ovqat texnologiyasiga oid fanlarni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar" Moliya 2015.
5. Abdukudusov O., Rashidov H. Kasb-hunar pedagogikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: O'MKHTTKMO va UQT, 2008. – 240 b.
6. Ахмедова, М. Т., & Нарметова, Ю. К. (2022). "МУОШАРАТ ОДОБИ" ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАРДА УСТОЗ-ШОГИРД МУНОСАБАТЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(5), 336-340.
7. Юлдашевна, Х., & Нарметова, Ю. К. (2022). РОЛЬ РЕЛИГИОЗНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ВОСПИТАНИИ ДУХОВНО РАЗВИТОГО ПОКОЛЕНИЯ СРЕДИ ДЕТЕЙ ИНВАЛИДОВ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(4), 114-117.
8. Sharapova D.B. [KASALLIKKA MUNOSABATNI SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR.](#) International scientific-online conference FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCE 2022.
9. Sharapova D.B. [ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ «СИНДРОМА ДОМОХОЗЯЙКИ»](#) Цифровые технологии на службе педагогики и психологии 2021, 239-241.